

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL
IYUN/6-SON, I-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyun.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

| | |
|---|----|
| AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KORPORATIV MENEJMENTNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI VA STRATEGIK AHAMIYATI..... | 14 |
| Xabibullayev Dadajon Ro‘ziboyevich | |
| GREEN ECONOMY TRANSITION AND INVESTMENT CHALLENGES IN DEVELOPING COUNTRIES | 20 |
| Ismoilov Sulaymon Axmadjon o‘g‘li | |
| O‘ZBEKISTONDA YASHIL SOLIQQA TORTISH TIZIMINI MUAMMOLAR, YECHIM VA IMKONIYATLARI ASOSIDA JORIY ETISH..... | 24 |
| Abdumannobova Gulnoz Akmaljon qizi | |
| O‘ZBEKISTONDA IJTIMOY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIYALASHTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH VA INVESTITSIYAVIY JOZIBADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI | 30 |
| Nosirova Kamola Alimovna | |
| RAQAMLI IQTISODIYOTDA TELEKOMMUNIKATSIYA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION MODELLARI VA ULARNING SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH | 39 |
| Xazratov Abror Panjiyevich | |
| MINTAQA SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY O‘SISHGA TA‘SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI | 44 |
| Astanayev Kulmaxammat Sanayevich | |
| TIJORAT BANKLARIDA INNOVATSION DEPOZIT XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA UNING BANK RESURS BAZASIGA TA‘SIRI..... | 51 |
| Ro‘zimurodov Olim, Normamatov Ruslanbek Shamsiddin o‘g‘li | |
| RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SUG‘URTA EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHNING TASHKILY-IQTISODIY ASOSLARI..... | 57 |
| Xalikulova Gulzada Tadjimuratovna, Kodirova Samira Kamol qizi | |



TIJORAT BANKLARIDA INNOVATSION DEPOZIT XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA UNING BANK RESURS BAZASIGA TA'SIRI

Ro'zimurodov Olim

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti, PhD

Normamatov Ruslanbek Shamsiddin o'g'li

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi

Annotatsiya. Tijorat banklarida innovatsion depozit xizmatlarini rivojlantirish masalasi bank resurs bazasining barqarorligini ta'minlash va mijozlarning moliyaviy ehtiyojlariga moslashuvchan xizmatlar ko'rsatish zarurati tufayli dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur tadqiqotda tijorat banklarida innovatsion depozit xizmatlarining iqtisodiy samaradorligini baholash hamda ularning bank resurs bazasiga ta'sirini aniqlash maqsadida qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv va iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamli texnologiyalar asosida shakllantirilgan depozit mahsulotlari mijozlar sonining ortishiga, mablag'larning uzoq muddatli jalb etilishiga va bank likvidligining mustahkamlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, innovatsion depozit xizmatlari banklarning raqobatbardoshligini oshirish bilan birga, resurs bazasining diversifikatsiyasini ta'minlash orqali moliyaviy barqarorlik darajasini kuchaytirishi aniqlandi. Tadqiqot davomida depozit xizmatlarini individuallashtirish, masofaviy bank xizmatlarini kengaytirish va mijozlarga yo'naltirilgan strategiyalarni rivojlantirish iqtisodiy samaradorlikning muhim omillari sifatida baholandi. Xulosa sifatida, innovatsion depozit xizmatlarini takomillashtirish tijorat banklarining resurs salohiyatini oshirish va bank tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanligi asoslandi.

Kalit so'zlar: innovatsion depozit xizmatlari, tijorat banklari, bank resurs bazasi, iqtisodiy samaradorlik, raqamli bank xizmatlari, moliyaviy barqarorlik, depozit siyosati.

Abstract. The development of innovative deposit services in commercial banks has become increasingly important due to the necessity of ensuring the stability of banks' resource base and providing flexible financial services that meet customers' evolving needs. This study evaluates the economic efficiency of innovative deposit services in commercial banks and examines their impact on the formation of the bank resource base through comparative, systematic, and economic analysis methods. The findings indicate that deposit products developed on the basis of digital technologies positively influence customer growth, the long-term attraction of funds, and the strengthening of bank liquidity. The research also reveals that innovative deposit services enhance banks' competitiveness and contribute to the diversification of the resource base, thereby increasing the level of financial stability. In the course of the study, the individualization of deposit services, the expansion of remote banking services, and the development of customer-oriented strategies were identified as significant factors affecting economic efficiency. The study concludes that improving innovative deposit services plays an important scientific and practical role in strengthening the resource potential of commercial banks and ensuring the sustainable development of the banking system.

Keywords: innovative deposit services, commercial banks, bank resource base, economic efficiency, digital banking services, financial stability, deposit policy.

Аннотация. Вопрос развития инновационных депозитных услуг в коммерческих банках приобретает особую актуальность в связи с необходимостью обеспечения устойчивости ресурсной базы банков и предоставления гибких финансовых услуг, соответствующих потребностям клиентов. В данном исследовании проведена оценка экономической эффективности инновационных депозитных услуг в коммерческих банках, а также изучено их влияние на ресурсную базу банков с использованием методов сравнительного, системного и экономического анализа. Результаты исследования показали, что депозитные продукты, сформированные на основе цифровых технологий, оказывают положительное влияние на рост числа клиентов, долгосрочное привлечение средств и укрепление банковской ликвидности. Установлено, что инновационные депозитные услуги способствуют повышению конкурентоспособности банков и обеспечивают диверсификацию ресурсной базы, что усиливает уровень финансовой устойчивости. В ходе исследования индивидуализация депозитных услуг, расширение дистанционного банковского обслуживания и развитие клиентоориентированных стратегий были определены как важные факторы экономической эффективности. В заключение обосновано, что совершенствование инновационных депозитных услуг имеет важное научно-практическое значение для укрепления ресурсного потенциала коммерческих банков и обеспечения устойчивого развития банковской системы.

Ключевые слова: инновационные депозитные услуги, коммерческие банки, ресурсная база банка, экономическая эффективность, цифровые банковские услуги, финансовая устойчивость, депозитная политика.



KIRISH

Tijorat banklari uchun depozit mablag'lari asosiy moliyaviy manbalardan biri hisoblanadi. Bank kreditlari, investitsiya operatsiyalari va kundalik likvidlik ko'p jihatdan aynan shu resurslarga tayangan holda amalga oshiriladi. Aholi va biznes subyektlari mablag'larini bankda ushlab turish esa tobora qiyinlashmoqda. Mobil to'lov tizimlari, elektron hamyonlar va investitsion platformalar odamlarga pulni bankdan tashqarida saqlash imkonini bermoqda. Natijada banklar oddiy omonat mahsulotlari bilan mijozni uzoq muddat ushlab qola olmayapti. Foiz stavkasini oshirish ham har doim natija bermaydi, chunki mijoz faqat daromadga emas, qulaylik, tezkorlik va mablag'ni boshqarish imkoniyatiga ham qaray boshlagan.

Depozit xizmatlaridagi muammo faqat mijoz soni bilan bog'liq emas. Mablag'larning qisqa muddatli shakllanishi bank resurs bazasini beqarorlashtiradi. Qisqa muddatli depozitlar asosida uzoq muddatli kredit berish likvidlik xavfini kuchaytiradi. Ayrim banklarda mijozlar mablag'ining katta qismi bir xil turdagi standart omonatlarga jamlangan. Bunday holatda bozordagi kichik o'zgarish ham omonat oqimiga ta'sir qiladi. Raqamli depozitlar, moslashuvchan foiz tizimi, maqsadli jamg'arma mahsulotlari yoki mobil boshqaruv imkoniyatlari kabi yechimlar aynan shu muammoni kamaytirish uchun qo'llanilmoqda. Lekin bu xizmatlarning real iqtisodiy natijasi har doim ham aniq baholanmagan.

Mavjud ilmiy ishlarda depozit siyosati ko'pincha umumiy bank faoliyatining bir qismi sifatida tahlil qilingan. Ayrim tadqiqotlar raqamli bank xizmatlariga e'tibor qaratadi, boshqalari esa foiz siyosati yoki mijozlar xulqini o'rganadi. Innovatsion depozit xizmatlari va bank resurs bazasi o'rtasidagi bog'liqlik esa yetarli darajada ochib berilmagan. Ayniqsa, yangi depozit mahsulotlarining bankning uzoq muddatli resurs shakllanishiga qanday ta'sir qilishi masalasi bo'yicha qarashlar bir xil emas. Ba'zi tadqiqotchilar innovatsion xizmatlar mijoz oqimini oshirishini qayd etsa, boshqalari bunday xizmatlarning xarajati yuqori ekanini ta'kidlaydi. Muammo shundaki, ko'p tadqiqotlarda texnologik qulaylik bilan iqtisodiy natija bir-biridan ajratib o'rganilgan.

Maqola uchta asosiy savolga javob izlaydi. Birinchi savol: innovatsion depozit xizmatlari bank resurs bazasining barqarorligiga qanday ta'sir qiladi? Ikkinchi savol: raqamli va moslashuvchan depozit mahsulotlari bankning iqtisodiy natijalarini qaysi yo'nalishlarda o'zgartiradi? Uchinchi savol: mijozni uzoq muddat bank tizimida ushlab qolishda qaysi depozit modeli ko'proq natija beradi? Mazkur savollar nazariy tahlil bilan cheklanmaydi. Ular bank amaliyotida yuzaga chiqayotgan real muammolarga bog'langan. Chunki resurs bazasi beqaror bo'lgan bank kredit portfelini xavfsiz boshqara olmaydi.

Ko'plab maqolalarda innovatsion bank xizmatlari umumiy raqamlashtirish jarayonining bir qismi sifatida ko'riladi. Bu yondashuv muammoning ichki iqtisodiy tomonini to'liq ochmaydi. Depozit xizmatining yangiligi faqat mobil ilova yoki onlayn ochish imkoniyati bilan belgilanmaydi. Mijoz mablag'ining bankda qancha vaqt qolishi, resurs narxining o'zgarishi va likvidlikka ta'siri ham hisobga olinishi kerak. Mazkur tadqiqot shu jihati bilan boshqa ishlardan farq qiladi. Tadqiqotda innovatsion depozit xizmatlari marketing vositasi sifatida emas, balki bank resurs bazasiga ta'sir qiluvchi moliyaviy omil sifatida tahlil qilinadi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi innovatsion depozit xizmatlarining tijorat banklari iqtisodiy faoliyatiga ta'sirini aniqlash va ularning resurs bazasi bilan bog'liqligini ochib berishdan iborat. Tadqiqot davomida depozit xizmatlarining iqtisodiy natijaga ta'siri, mijoz mablag'larining barqarorligi va bank likvidligi bilan aloqasi tahlil qilinadi. Tadqiqot gipotezasi quyidagicha shakllantirilgan: depozit xizmatlari mijoz ehtiyojiga mos va raqamli boshqaruv imkoniyatiga ega bo'lsa, bank resurs bazasi barqarorroq shakllanadi va moliyaviy operatsiyalar uchun nisbatan qulay sharoit yuzaga keladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bank resurs bazasi va depozit siyosati iqtisodiy adabiyotlarda tijorat banklari barqarorligini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida talqin qilinadi. Dastlabki tadqiqotlarda depozitlar asosan bankning passiv operatsiyalari tarkibida o'rganilgan bo'lsa, keyingi ishlarda mijoz xulqi, raqamli texnologiyalar va moliyaviy xizmatlar transformatsiyasi bilan bog'liq jihatlar kuchaygan. Ayniqsa, raqamli bank xizmatlarining kengayishi depozit mahsulotlarini oddiy jamg'arma vositasidan mijoz bilan uzoq muddatli moliyaviy aloqani shakllantiruvchi instrumentga aylantirdi. Shu sababli zamonaviy tadqiqotlarda depozit xizmatlari faqat foiz siyosati orqali emas, balki texnologik qulaylik, masofaviy boshqaruv va xizmatlarning individuallashtirilishi orqali ham baholanmoqda.

O. M. Melikovning tadqiqotlarida innovatsion depozit mahsulotlari va raqamli bank xizmatlarining bank depozitlariga ta'siri amaliy misollar asosida tahlil qilingan. Muallif mobil banking va onlayn depozit tizimlari mijozlar faolligini oshirishini, ayniqsa yosh va raqamli xizmatlardan faol foydalanuvchi qatlamni bank tizimiga jalb qilishda muhim rol o'ynashini qayd etadi. Tadqiqotda depozit hajmining o'sishi ko'proq raqamli xizmatlarning qulayligi bilan izohlanadi. Lekin mazkur yondashuvda resurs bazasining sifati, depozitlarning muddat bo'yicha tarkibi yoki likvidlikka ta'siri yetarli darajada ochib berilmagan. Muallifning keyingi ishida depozit xizmatlari amaliyotini takomillashtirish masalasi ko'tarilib, banklar o'rtasidagi raqobat sharoitida moslashuvchan depozit



mahsulotlari zarurligi asoslangan. Biroq, bu yerda ham asosiy urg'u xizmat ko'rsatish mexanizmlariga qaratilib, innovatsion mahsulotlarning iqtisodiy samaradorligi chuqur tahlil qilinmagan.

A. A. Mamatov tijorat banklarida aktiv-passivlarni boshqarish holatini tahlil qilar ekan, resurs bazasi barqarorligi bank likvidligi va kredit operatsiyalarining xavfsizligi bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatadi. Muallif depozit mablag'larining qisqa muddatli shakllanishi banklar uchun asosiy xavflardan biri ekanini qayd etadi. Bu yondashuv Melikovning depozit xizmatlari haqidagi qarashlaridan farq qiladi. Melikov ko'proq mijozlarni jalb qilish omillariga e'tibor qaratgan bo'lsa, Mamatov resurslarning tarkibi va muddatiga urg'u beradi. Ikki yondashuvni solishtirganda bir muhim holat ko'rinadi: innovatsion depozit xizmatlari mijoz sonini oshirishi mumkin, lekin bu har doim ham resurs bazasining barqarorlashishini anglatmaydi. Aynan shu bog'liqlik ilmiy adabiyotlarda kam yoritilgan.

F. U. Dodievning investitsion faoliyatga bag'ishlangan tadqiqotida bank resurs bazasi investitsiya imkoniyatlarini belgilovchi omil sifatida ko'riladi. Muallif uzoq muddatli va arzon resurslarning yetishmasligi banklarning investitsion faolligini cheklashini qayd etadi. Bu qarash depozit xizmatlarini oddiy bank mahsuloti emas, balki investitsion salohiyatni shakllantiruvchi manba sifatida talqin qilish imkonini beradi. T. Q. Boltaev esa valuta operatsiyalarini rivojlantirish istiqbollari o'rganar ekan, bank xizmatlarini diversifikatsiya qilish orqali mijozlar bazasini kengaytirish mumkinligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, xizmat turlarining ko'payishi bankka bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi. Lekin valuta operatsiyalari va depozit xizmatlari o'rtasidagi funksional bog'liqlik alohida tahlil qilinmagan. Shu sababli xizmatlar diversifikatsiyasi bilan resurs bazasi o'rtasidagi iqtisodiy aloqa hali ham yetarli asoslanmagan.

M. S. Bo'taboevning risklarni boshqarish bo'yicha tadqiqoti bank resurs bazasi bilan bog'liq xavflarni huquqiy va institutsional jihatdan tahlil qiladi. Muallif risklarni boshqarish tizimi zaif bo'lgan sharoitda depozit oqimining keskin o'zgarishi bank barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi. Bu yondashuv innovatsion depozit xizmatlariga boshqa nuqtadan qarash imkonini beradi. Agar yangi depozit mahsulotlari mijoz mablag'larini uzoqroq muddat ushlab qolsa, risk darajasi pasayishi mumkin. Lekin aksincha holat ham mavjud: yuqori foizli yoki haddan tashqari moslashuvchan depozitlar bank xarajatlarini oshirib yuboradi. Adabiyotlarda aynan mana shu ikki tomonlama ta'sir yetarli darajada tahlil qilinmagan.

Markaziy bankning likvidlikni boshqarish va tavakkalchiliklarni nazorat qilishga oid nizomlari bank resurs bazasi sifati va barqarorligini tartibga soluvchi asosiy me'yoriy asoslarni belgilaydi. 2015-yildagi likvidlik talablari banklarning qisqa va uzoq muddatli majburiyatlarini muvozanatda saqlashga qaratilgan bo'lsa, 2023-yildagi risklarni boshqarish tizimiga oid talablar depozitlar tarkibi va resurslarning diversifikatsiyasiga ko'proq e'tibor qaratadi. Prezidentning bank tizimini transformatsiya qilishga oid qarorida esa raqamli xizmatlarni kengaytirish bank tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Bu hujjatlar ilmiy tadqiqotlarga yangi yo'nalish bergan bo'lsa-da, amaliyotda innovatsion depozit xizmatlarining iqtisodiy natijasi hali to'liq baholanmagan.

So'nggi tadqiqotlarda raqamli depozit xizmatlari ko'proq texnologik transformatsiya nuqtai nazaridan talqin qilinmoqda. Raqamli platformalar orqali omonat ochish, masofadan boshqarish va mobil ilovalar yordamida xizmat ko'rsatish mijozlar uchun qulaylik yaratishi ko'rsatiladi. Ayrim ishlarda bu xizmatlar bank xarajatlarini kamaytirishi qayd etiladi. Lekin iqtisodiy samaradorlik masalasi ko'pincha umumiy iboralar bilan cheklanadi. Masalan, depozit hajmining o'sishi qayd etiladi, biroq resurs qiymati, depozitning bank uchun real xarajati yoki uzoq muddatli moliyaviy natija yetarli tahlil qilinmaydi.

Adabiyotlar tahlili bir nechta ilmiy bo'shliq mavjudligini ko'rsatadi. Birinchidan, innovatsion depozit xizmatlari va bank resurs bazasi barqarorligi o'rtasidagi bog'liqlik alohida iqtisodiy model sifatida o'rganilmagan. Ikkinchidan, raqamli depozit mahsulotlarining bank xarajatlari va likvidlik darajasiga ta'siri bo'yicha yagona yondashuv shakllanmagan. Uchinchidan, ko'pchilik tadqiqotlarda innovatsion xizmatlarning texnologik tomoni ustun bo'lib, ularning iqtisodiy samarasi ikkinchi planga tushib qolgan. Mazkur tadqiqot aynan shu bo'shliqlarni to'ldirishga qaratiladi va innovatsion depozit xizmatlarini bank resurs bazasining iqtisodiy barqarorligi bilan bog'liq holda tahlil qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tijorat banklarida innovatsion depozit xizmatlarining iqtisodiy samaradorligi va bank resurs bazasiga ta'sirini baholash uchun aralash tadqiqot dizaynidan foydalanildi. Mazkur yondashuv depozit xizmatlari bilan bog'liq iqtisodiy jarayonlarni nazariy va amaliy jihatdan birgalikda tahlil qilish imkonini berdi. Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik hisobotlari, bank tizimi faoliyatiga oid rasmiy ma'lumotlar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda OAK tan olgan ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar tashkil etdi. Tahlil uchun tijorat banklarining depozit hajmi, resurs tarkibi, likvidlik ko'rsatkichlari va raqamli xizmatlar bilan bog'liq ma'lumotlari tanlab olindi. Ma'lumotlar tanlanmasi so'nggi yillardagi bank transformatsiyasi jarayonlarini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar asosida shakllantirildi. Tadqiqot davomida qiyosiy

tahlil, iqtisodiy tahlil, mantiqiy umumlashtirish va sintez usullari qo'llanildi. Statistik ma'lumotlarni qayta ishlashda dinamik tahlil, tarkibiy taqqoslash va foiz nisbatlari orqali baholash usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida innovatsion depozit xizmatlari tijorat banklari resurs bazasining shakllanishiga bevosita ta'sir qiluvchi omillardan biri ekani aniqlandi. Ayniqsa, raqamli platformalar orqali taqdim etilayotgan depozit mahsulotlari mijozlar uchun bank xizmatlaridan foydalanish jarayonini soddalashtirgani sababli depozit operatsiyalarining faollashuviga olib kelmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, depozit xizmatlarida qulaylik darajasi oshgan sari mijozlarning bank tizimida mablag' saqlashga bo'lgan moyilligi ham ortadi. Bu holat kirish qismida qo'yilgan birinchi savolga, ya'ni innovatsion depozit xizmatlari bank resurs bazasi barqarorligiga qanday ta'sir ko'rsatishi masalasiga javob beradi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, depozit mahsulotlarining moslashuvchanligi va raqamli boshqaruv imkoniyati resurslarning uzoqroq muddat bank tizimida saqlanishiga xizmat qilmoqda.

Tahlillar davomida an'anaviy depozit mahsulotlari bilan innovatsion depozit xizmatlari o'rtasidagi farqlar ham kuzatildi. Oddiy muddatli depozitlarda mijoz mablag'idan foydalanish imkoniyati qat'iy cheklangan bo'lsa, yangi turdagi depozit mahsulotlari qisman mablag' yechib olish, mobil ilova orqali boshqarish yoki foizlarni moslashtirish imkonini beradi. Bu qulaylik mijozlar sonining ortishiga yordam bergan bo'lsa-da, barcha hollarda resurs bazasining sifati bir xil darajada oshmagan. Ayrim banklarda qisqa muddatli raqamli depozitlar ulushi yuqoriligidan qolayotgani aniqlandi. Bu esa innovatsion xizmatlar mavjud bo'lishining o'zi yetarli emasligini ko'rsatadi. Agar depozit siyosati uzoq muddatli resurs shakllanishiga yo'naltirilmasa, raqamli xizmatlar faqat operatsion faollikni oshiradi, xolos.

Natijalar O. M. Melikovning raqamli depozit xizmatlari mijozlarni jalb qilishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi haqidagi qarashlarini qisman tasdiqladi. Tadqiqot davomida mobil bank xizmatlari rivojlangan banklarda depozit operatsiyalarining yuqori faolligi kuzatildi. Lekin tadqiqot natijalari Melikovning yondashuvini kengaytiradi. Chunki depozit hajmining ortishi har doim ham bank resurs bazasi barqarorligini anglatmaydi. Mijoz mablag'larining bankda qancha muddat saqlanishi, depozit tarkibi va resurs narxi ham muhim omil hisoblanadi. Shu jihatdan tadqiqot adabiyotlar tahlilida aniqlangan bo'shliqlardan birini qisman to'ldiradi. Innovatsion depozit xizmatlari texnologik qulaylik bilan bir qatorda iqtisodiy natija nuqtai nazaridan ham baholandi(1-jadval).

1-jadval

Innovatsion depozit xizmatlarining bank resurs bazasiga ta'siri¹

| Innovatsion xizmat turi | Ijobiy ta'siri | Asosiy muammo | Natija |
|--------------------------------|------------------------|--------------------------|-----------------------------------|
| Raqamli depozitlar | Mijozlar soni oshadi | Qisqa muddatli resurslar | Operatsion faollik kuchayadi |
| Moslashuvchan depozitlar | Qulay boshqaruv | Resurs narxi oshishi | Mijoz sodiqligi ortadi |
| Maqsadli jamg'arma depozitlari | Barqaror mablag' jalbi | Cheklangan foydalanish | Uzoq muddatli resurs shakllanadi |
| Mobil boshqaruv tizimi | Xizmat sifati oshadi | Texnologik xarajatlar | Bank raqobatbardoshligi kuchayadi |

A. A. Mamatov tomonidan ilgari surilgan aktiv-passivlarni boshqarish bilan bog'liq yondashuvlar tadqiqot natijalari bilan mos keladi. Qisqa muddatli depozitlarning yuqori ulushi bank likvidligi uchun xavf tug'dirishi aniqlandi. Ayrim hollarda banklar depozit portfelini kengaytirishga erishgan bo'lsa-da, resurslarning muddat bo'yicha nomutanosibligi saqlanib qolgan. Bu holat kreditlash faoliyatiga ham ta'sir ko'rsatadi. Uzoq muddatli kredit operatsiyalarini qisqa muddatli depozitlar hisobidan moliyalashtirish bank uchun qo'shimcha tavakkalchilik keltirib chiqaradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, innovatsion depozit xizmatlari faqat depozit hajmini oshirishga emas, balki resurslar tarkibini muvozanatlashtirishga ham xizmat qilishi kerak.

Tahlil davomida maqsadli jamg'arma depozitlari va moslashuvchan depozit mahsulotlari nisbatan barqaror resurs shakllantirish imkoniga ega ekani kuzatildi. Bunday mahsulotlarda mijozlar mablag'ni ma'lum maqsad bilan joylashtirgani sababli depozitni muddatidan oldin yechib olish holatlari kamroq uchraydi. Uy-joy, ta'lim yoki tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq depozitlar uzoq muddatli jamg'arma xulqini shakllantirishga yordam beradi. Shu sababli banklar uchun maqsadli depozit mahsulotlari oddiy muddatli omonatlarga nisbatan barqarorroq resurs manbai bo'lishi mumkin. Tadqiqotning ikkinchi savoli, ya'ni innovatsion depozit mahsulotlari banklarning iqtisodiy natijalariga qanday ta'sir qilishi masalasida aynan shu omil muhim natija sifatida qayd etildi.

1 Muallif ishlanmasi



Investitsion depozit mahsulotlari bo'yicha natijalar bir xil emasligi aniqlandi. Ayrim hollarda bunday mahsulotlar mijozlar uchun yuqori daromad imkoniyatini yaratadi va depozit jozibadorligini oshiradi. Biroq, resurs narxining oshishi bank xarajatlarini ham ko'paytiradi. Bu esa har doim ham iqtisodiy samaradorlikka olib kelmaydi. Tadqiqot davomida depozit xizmatlarining daromadlilik darajasi bilan resurs qiymati o'rtasida muvozanat zarurligi kuzatildi. Juda yuqori foizli depozit mahsulotlari qisqa muddatda mijoz oqimini oshirishi mumkin, lekin uzoq muddatda bank xarajatlarini orttiradi. Shu sababli innovatsion depozit siyosati faqat mijoz jalb qilishga emas, balki resurs qiymatini nazorat qilishga ham qaratilishi kerak.

Tadqiqot natijalari uchinchi savolga ham javob berdi. Mijozlarni uzoq muddat bank tizimida ushlab qolishda eng samarali omil yuqori foiz stavkasi emas, balki xizmat qulayligi va moslashuvchanlik ekani kuzatildi. Mobil boshqaruv imkoniyati, qisman mablag' yechish funksiyasi va maqsadli jamg'arma tizimlari mijozlar uchun ko'proq ahamiyat kasb etmoqda. Bu holat depozit bozoridagi raqobatning o'zgarayotganini ko'rsatadi. Oldin banklar asosan foiz stavkalari orqali raqobatlashgan bo'lsa, endilikda xizmat sifati va funksional imkoniyatlar asosiy omillardan biriga aylanmoqda.

Tadqiqot ayrim cheklanishlarga ham ega. Tahlilda barcha tijorat banklarining ichki depozit siyosatiga oid batafsil ma'lumotlardan foydalanish imkoniyati mavjud bo'lmadi. Ayrim statistik ma'lumotlar umumlashtirilgan shaklda taqdim etilgani sababli banklar kesimidagi chuqur solishtirma tahlil cheklangan. Raqamli depozit xizmatlari bo'yicha ayrim ko'rsatkichlarning ochiq statistik bazalarda yetarli darajada shakllanmagani ham tahlil imkoniyatlarini qisqartirdi. Shu sababli kelgusida banklar kesimida mikroma'lumotlarga asoslangan tadqiqotlar o'tkazish zarurati mavjud.

Tadqiqot natijalari amaliy jihatdan tijorat banklari uchun depozit siyosatini qayta ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi. Innovatsion depozit xizmatlari faqat texnologik yangilik sifatida emas, balki bank resurs bazasini boshqarish instrumenti sifatida shakllantirilishi kerak. Nazariy jihatdan esa tadqiqot innovatsion depozit xizmatlari va bank resurs bazasi o'rtasidagi bog'liqlikni iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan izohlashga urinadi. Adabiyotlarda asosan texnologik transformatsiyaga e'tibor qaratilgan bo'lsa, mazkur tadqiqot resurs sifati, likvidlik va depozit tarkibi bilan bog'liq jihatlarni birgalikda tahlil qildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot davomida innovatsion depozit xizmatlari tijorat banklari resurs bazasining shakllanishiga bevosita ta'sir qiluvchi omillardan biri ekani aniqlandi. Ayniqsa, raqamli platformalar orqali taqdim etilayotgan depozit mahsulotlari mijozlar uchun bank xizmatlaridan foydalanish jarayonini soddalashtirgani sababli depozit operatsiyalarining faollashuviga olib kelmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, depozit xizmatlarida qulaylik darajasi oshgan sari mijozlarning bank tizimida mablag' saqlashga bo'lgan moyilligi ham ortadi. Bu holat kirish qismida qo'yilgan birinchi savolga, ya'ni innovatsion depozit xizmatlari bank resurs bazasi barqarorligiga qanday ta'sir ko'rsatishi masalasiga javob beradi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, depozit mahsulotlarining moslashuvchanligi va raqamli boshqaruv imkoniyati resurslarning uzoqroq muddat bank tizimida saqlanishiga xizmat qilmoqda.

Tahlillar davomida an'anaviy depozit mahsulotlari bilan innovatsion depozit xizmatlari o'rtasidagi farqlar ham kuzatildi. Oddiy muddatli depozitlarda mijoz mablag'idan foydalanish imkoniyati qat'iy cheklangan bo'lsa, yangi turdagi depozit mahsulotlari qisman mablag' yechib olish, mobil ilova orqali boshqarish yoki foizlarni moslashtirish imkonini beradi. Bu qulaylik mijozlar sonining ortishiga yordam bergan bo'lsa-da, barcha hollarda resurs bazasining sifati bir xil darajada oshmagan. Ayrim banklarda qisqa muddatli raqamli depozitlar ulushi yuqoriligicha qolayotgani aniqlandi. Bu esa innovatsion xizmatlar mavjud bo'lishining o'zi yetarli emasligini ko'rsatadi. Agar depozit siyosati uzoq muddatli resurs shakllanishiga yo'naltirilmasa, raqamli xizmatlar faqat operatsion faollikni oshiradi, xolos.

Natijalar O. M. Melikovning raqamli depozit xizmatlari mijozlarni jalb qilishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi haqidagi qarashlarini qisman tasdiqladi. Tadqiqot davomida mobil bank xizmatlari rivojlangan banklarda depozit operatsiyalarining yuqori faolligi kuzatildi. Lekin tadqiqot natijalari Melikovning yondashuvini kengaytiradi. Chunki depozit hajmining ortishi har doim ham bank resurs bazasi barqarorligini anglatmaydi. Mijoz mablag'larining bankda qancha muddat saqlanishi, depozit tarkibi va resurs narxi ham muhim omil hisoblanadi. Shu jihatdan tadqiqot adabiyotlar tahlilida aniqlangan bo'shliqlardan birini qisman to'ldiradi. Innovatsion depozit xizmatlari texnologik qulaylik bilan bir qatorda iqtisodiy natija nuqtai nazaridan ham baholandi.

A. A. Mamatov tomonidan ilgari surilgan aktiv-passivlarni boshqarish bilan bog'liq yondashuvlar tadqiqot natijalari bilan mos keladi. Qisqa muddatli depozitlarning yuqori ulushi bank likvidligi uchun xavf tug'dirishi aniqlandi. Ayrim hollarda banklar depozit portfelini kengaytirishga erishgan bo'lsa-da, resurslarning muddat bo'yicha nomutanosibliigi saqlanib qolgan. Bu holat kreditlash faoliyatiga ham ta'sir ko'rsatadi. Uzoq muddatli kredit operatsiyalarini qisqa muddatli depozitlar hisobidan moliyalashtirish bank uchun qo'shimcha tavakkalchilik keltirib chiqaradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, innovatsion depozit xizmatlari faqat depozit

hajmini oshirishga emas, balki resurslar tarkibini muvozanatlashtirishga ham xizmat qilishi kerak.

Tahlil davomida maqsadli jamg'arma depozitlari va moslashuvchan depozit mahsulotlari nisbatan barqaror resurs shakllantirish imkoniga ega ekani kuzatildi. Bunday mahsulotlarda mijozlar mablag'ni ma'lum maqsad bilan joylashtirgani sababli depozitni muddatidan oldin yechib olish holatlari kamroq uchraydi. Uy-joy, ta'lim yoki tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq depozitlar uzoq muddatli jamg'arma xulqini shakllantirishga yordam beradi. Shu sababli banklar uchun maqsadli depozit mahsulotlari oddiy muddatli omonatlarga nisbatan barqarorroq resurs manbai bo'lishi mumkin. Tadqiqotning ikkinchi savoli, ya'ni innovatsion depozit mahsulotlari banklarning iqtisodiy natijalariga qanday ta'sir qilishi masalasida aynan shu omil muhim natija sifatida qayd etildi.

Investitsion depozit mahsulotlari bo'yicha natijalar bir xil emasligi aniqlandi. Ayrim hollarda bunday mahsulotlar mijozlar uchun yuqori daromad imkoniyatini yaratadi va depozit jozibadorligini oshiradi. Biroq, resurs narxining oshishi bank xarajatlarini ham ko'paytiradi. Bu esa har doim ham iqtisodiy samaradorlikka olib kelmaydi. Tadqiqot davomida depozit xizmatlarining daromadlilik darajasi bilan resurs qiymati o'rtasida muvozanat zarurligi kuzatildi. Juda yuqori foizli depozit mahsulotlari qisqa muddatda mijoz oqimini oshirishi mumkin, lekin uzoq muddatda bank xarajatlarini orttiradi. Shu sababli innovatsion depozit siyosati faqat mijoz jalb qilishga emas, balki resurs qiymatini nazorat qilishga ham qaratilishi kerak.

Tadqiqot natijalari uchinchi savolga ham javob berdi. Mijozlarni uzoq muddat bank tizimida ushlab qolishda eng samarali omil yuqori foiz stavkasi emas, balki xizmat qulayligi va moslashuvchanlik ekani kuzatildi. Mobil boshqaruv imkoniyati, qisman mablag' yechish funksiyasi va maqsadli jamg'arma tizimlari mijozlar uchun ko'proq ahamiyat kasb etmoqda. Bu holat depozit bozorida raqobatning o'zgarayotganini ko'rsatadi. Oldin banklar asosan foiz stavkalari orqali raqobatlashgan bo'lsa, endilikda xizmat sifati va funksional imkoniyatlar asosiy omillardan biriga aylanmoqda.

Tadqiqot ayrim cheklanishlarga ham ega. Tahlilda barcha tijorat banklarining ichki depozit siyosatiga oid batafsil ma'lumotlardan foydalanish imkoniyati mavjud bo'lmadi. Ayrim statistik ma'lumotlar umumlashtirilgan shaklda taqdim etilgani sababli banklar kesimidagi chuqur solishtirma tahlil cheklangan. Raqamli depozit xizmatlari bo'yicha ayrim ko'rsatkichlarning ochiq statistik bazalarda yetarli darajada shakllanmagani ham tahlil imkoniyatlarini qisqartirdi. Shu sababli kelgusida banklar kesimida mikroma'lumotlarga asoslangan tadqiqotlar o'tkazish zarurati mavjud.

Tadqiqot natijalari amaliy jihatdan tijorat banklari uchun depozit siyosatini qayta ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi. Innovatsion depozit xizmatlari faqat texnologik yangilik sifatida emas, balki bank resurs bazasini boshqarish instrumenti sifatida shakllantirilishi kerak. Nazariy jihatdan esa tadqiqot innovatsion depozit xizmatlari va bank resurs bazasi o'rtasidagi bog'liqlikni iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan izohlashga urinadi. Adabiyotlarda asosan texnologik transformatsiyaga e'tibor qaratilgan bo'lsa, mazkur tadqiqot resurs sifati, likvidlik va depozit tarkibi bilan bog'liq jihatlarni birgalikda tahlil qildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Melikov, O. M. (2025). Innovatsion depozit mahsulotlari va raqamli bank xizmatlarining bank depozitlariga ta'siri va rivojlanishi tendensiyalari. *Raqamli iqtisodiyot ilmiy-elektron jurnali*, (13).
2. Melikov, O. (2025). Tijorat banklari depozit xizmatlari amaliyotini takomillashtirish. *Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot*, 3(2). <https://doi.org/10.5281/zenodo.14872169>
3. Mamatov, A. A. (2023). Hozirgi kunda Ўзбекистон banklarida актив-пассивларни бошқариш ҳолати. *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*, 3(6).
4. Dodiev, F. U. (n.d.). Тижорат banklarining инвестиция фаолиятини ривожлантириш йўллари. *Иқтисодиёт ва бизнес соҳасидаги илмий тадқиқотлар*.
5. Boltayev, T. Q. (2022). Ўзбекистон тижорат banklarida валюта операцияларини ривожлантириш истиқболлари. *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*, 2(6).
6. Vo'taboev, M. S. (2025). Ўзбекистон Республикасида тижорат banklari risklarini бошқаришнинг ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш. *Applied Sciences*, 7.
7. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2015). *Tijorat banklarining likvidligini boshqarishga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizom*. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2709-son.
8. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2023). *Banklar va banklar guruhlarining tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga doir talablar to'g'risidagi nizom*. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 3427-son.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020). *Bank tizimini isloh qilish strategiyasi va tijorat banklari faoliyatini transformatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida*. Toshkent.
10. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2024). *O'zbekiston Respublikasi bank tizimi faoliyati bo'yicha statistik hisobotlar*. Toshkent: Markaziy bank nashri.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100